XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI





# XORAZM VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

***2022- YIL YANVAR-NOYABR (DASTLABKI MA’LUMOT)***



# Xorazm viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

*(2022- yil yanvar-noyabr oylarida)*

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022- yilning yanvar-noyabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 16 270,0 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 115,6 %ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelgan va uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 96,2 %ni tashkil etdi.

| B | C | D | E |
|---|---|---|---|
| 0,007% | 96,211% | 3,119% | 0,663% |
| Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash | Ishlab chiqaradigan sanoat | Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash | Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish |

## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* %da

| | 2021- yil yanvar-noyabr | 2022- yil yanvar-noyabr |
|---|---|---|
| B | 57,4 % | 9,1% |
| C | 113,1 % | 112,4 % |
| D | 100,2% | 175,5 % |
| E | 91,0 % | 99,5 % |

**Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.*

*Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o‘sishining asosiy omili bo‘lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 12,4 % ga, elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalashning – 75,5 % ga o‘sishi kuzatildi, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati – 90,9 % ga, suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimining 0,5 % ga kamayishi kuzatildi.*

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati




*Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1,1 mlrd so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,007 %ini tashkil etdi.*

**Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda**



## Ishlab chiqaradigan sanoat




*2022- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 16 653,5 mlrd so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 96,2 %ini tashkil etdi.*

**2021- yil yanvar-noyabr** — **96,5 %**

**2022- yil yanvar-noyabr** — **96,2 %**

*O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,09 %ni (2021- yilning yanvar-noyabr oylarida – 0,16 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 41,8 %ni (2021- yilning yanvar-noyabr oylarida – 39,7%), o‘rta-quyi texnologiyali – 3,8 % (2021- yilning yanvar-noyabr oylarida – 5,9 %) va quyi texnologiyalisi – 50,4 % (2021- yilning yanvar-noyabr oylarida – 50,7%)ni tashkil etdi.*



*Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta’mirlash va o‘rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 44,4 % (2021- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 113,7 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 0,3 % (2021- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 94,6 %), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 21,6 % (2021-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 91,1 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 28,7 % (2021- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 139,2 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 0,6 % (2021- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 60,8 %)ni, yog`och va po`kak buyumlar (mebeldan tashqari), poxol va to`qish uchun materiallardan buyumlar, qog`oz va qog`oz mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi – 1,5 % (2021- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 127,3 %)ni tashkil etdi.*

## Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘sish sur’ati

*O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, %da **

**Paxta tolasi**




**Paxta chigiti**




**Paxtadan yigirilgan ip**




**Yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobillarsiz)**




**Maxsus yengil avtomobillar**












*2022- yilning yanvar-noyabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda paxta tolasi 67 382,9 tonna (2021- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 2,2 % ga kamaygan), paxta chigiti 123 195,9 tonna (2021- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 11,6 % ga oshgan), 29 748,2 tonna paxtadan yigirilgan ip (43,5 % kamaygan), 65 456 dona yengil avtomobil (maxsus yengil avtomobillarsiz) (35,2 % oshgan), 18 616 dona maxsus yengil avtomobil (40,1 % ga oshgan), o‘simlik yog‘i 9 481,0 tonna (53,2 % kamaygan), xo‘jalik sovuni 1 994,2 tonna (52,1 % kamaygan) hamda 79 381,9 tonna yumshoq bug‘doy va spelta uni (100,1 % bo‘lgan) ishlab chiqarilib, yuqori o‘sish sur’atlari kuzatildi.*

## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-noyabr | 2022- yil yanvar-noyabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobillarsiz),dona | 48432 | 65456 | 17024 |
| Maxsus yengil avtomobillar, dona | 13284 | 18616 | 5332 |
| Paxtadan yigirilgan ip,tonna | 52642,0 | 29748,2 | -22893,8 |
| Paxta tolasi,tonna | 68907,6 | 67382,9 | -1524,7 |
| Yumshoq bug‘doy va spelta uni, tonna | 79274,0 | 79381,9 | 107,9 |
| O‘simlik yog‘i (tozalangan), tonna | 21063,7 | 9481,0 | -11582,7 |

*yanvar-noyabr , yirik korxonalar bo‘yicha*

## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

*2020- yil yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 15,8 %ni, uning fizik hajm indeksi esa 99,4 %ni tashkil etgan bo‘lsa, 2022- yilning yanvar-noyabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 22,4 %ni tashkil etdi, o‘tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 6,3 %ga ko‘paygan va ishlab chiqarish hajmi 3 513,6 mlrd so‘mni tashkil etdi.*




## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati




*2020- yil yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 3,5 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 98,1 %ni tashkil etgan bo‘lsa, 2022- yilning yanvar-noyabr oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 6,2 %ni tashkil etdi, o‘tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 197,2 %ga ko‘paygan va ishlab chiqarish hajmi 977,3 mlrd so‘mni tashkil etdi.*

## To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

*2020- yil yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 20,7 % ni tashkil etgan bo‘lsa, uning fizik hajm indeksi 120,8 %ni tashkil etgan.*

*Shuningdek, 2022- yilning yanvar-noyabr oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 21,0 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 90,8 %ni, ishlab chiqarish hajmi 3 286,1 mlrd so‘mni tashkil etdi.*



## Qog‘oz va qog‘oz mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

*2020- yil yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida qog‘oz va qog‘oz mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,7 %ni, uning fizik hajm indeksi esa 242,5 %ni tashkil etgan bo‘lsa, 2022- yilning yanvar-noyabr oylariga ko‘ra, qog‘oz va qog‘oz mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 1,0 %ni tashkil etdi, o‘tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 78,7 %ni va ishlab chiqarish hajmi 160,0 mlrd so‘mni tashkil etdi.*




## Asosiy farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati




*2020- yil yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida asosiy farmasevtika mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,11 %ni tashkil etgan bo‘lsa, uning fizik hajm indeksi 166,2 %ni tashkil etgan.*

*Shuningdek, 2022- yilning yanvar-noyabr oylarida asosiy farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,1 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 62,3 %ni va ishlab chiqarish hajmi 14,9 mlrd so‘mni tashkil etdi.*

## Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

*2020- yil yanvar-noyabr oylarida rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,1 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 133,6 %ni tashkil etgan.*

*Shuningdek, 2022- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,4 %ni, fizik hajm indeksi 56,3 %ni hamda ishlab chiqarish hajmi 70,3 mlrd so‘mni tashkil etdi.*



## Elektr uskunalar ishlab chiqarish

*2020- yil yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko‘ra, elektr uskunalari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 93,3 %ni tashkil etgan.*

*Shuningdek, 2022- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 %ni, fizik hajm indeksi 135,2 %ni hamda ishlab chiqarish hajmi 43,7 mlrd so‘mni tashkil etdi.*




## Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish




*2020- yil yanvar-noyabr oylarida boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,3 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 36,3 %ni tashkil etgan.*

*Shuningdek, 2022- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,5 %ni, fizik hajm indeksi 84,7 %ni hamda ishlab chiqarish hajmi 396,2 mlrd so‘mni tashkil etdi.*

## Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

*2020- yil yanvar-noyabr oylarida avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 47,0 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 108,8 % .*

*Shuningdek, 2022- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 40,5 %ni, fizik hajm indeksi 120,0 %ni hamda ishlab chiqarish hajmi 6 333,2 mlrd so‘mni tashkil etdi.*



## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 507,4 mlrd so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,1 %ini) tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-noyabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 75,5 %ga oshganligi kuzatildi.




## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-noyabr | 2022- yil yanvar-noyabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Elektroenergiya, mln kVt.s | 142,2 | 535,0 | 392,8 |
| Issiqlik energiyasi, ming gkal | 102,4 | 98,4 | -4,0 |
| Elektr energiyasini uzatish bo‘yicha xizmatlar, ming so‘m | 1601515,0 | 1603874,0 | 2359,0 |

*Yanvar – noyabr, yirik korxonalar bo‘yicha*

## Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 107,9 mlrd so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 %ini) tashkil etdi.




## Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-noyabr | 2022- yil yanvar-noyabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Oqova suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar, *ming so‘m*** | 4924382,0 | 5613623,0 | 689241 |
| **Tabiiy suv;suvga ishlov berish va suv bilan ta’minlash bo‘yicha xizmatlar, *ming so‘m*** | 121892511,0 | 125152008,0 | 3259497 |
| **Xavfsiz chiqindilarni yig‘ish bo‘yicha xizmatlar, *ming so‘m*** | 22589148,0 | 18833846,0 | -3755302 |

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar 14,0 %ga, tabiiy suv, suvga ishlov berish va suv bilan ta’minlash bo‘yicha xizmatlar 2,7 % ga oshganligi kuzatildi.

# Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

*Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 10 256,8 mlrd so'mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 128,7 %ni, uning jami sanoatdagi ulushi 63,0 %ni tashkil etdi.*

## Oziq-ovqat mahsulotlari

| 2021- yil yanvar-noyabr | 2022- yil yanvar-noyabr |
|---|---|
| 38,9% | 39,7% |

## Nooziq-ovqat mahsulotlari

| 2021- yil yanvar-noyabr | 2022- yil yanvar-noyabr |
|---|---|
| 61,1% | 60,3% |

*Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat bo'yicha jami hajmidagi eng yuqori ulushi Tuproqqal'a tumaniga to'g'ri kelib 66,5 %ni, Urganch shahrida 15,4 %ni va Urganch tumanida 3,6 %ni tashkil etdi.*

*Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (128,7 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Urganch shahrida (155,9 %), Tuproqqal'a tumanida (130,5 %), Yangibozor tumanida (145,3 %), qayd etildi.*

## Hududlar bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*Shahar va tumanlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat bo‘yicha jami hajmidagi eng yuqori ulush Tuproqqal’a tumaniga to‘g‘ri kelib 66,5 %ni, Urganch shahrida 15,4 %ni va Urganch tumanida 3,6 %ni tashkil etdi.*




*7 971,5 mlrd so‘m*

*2021- yil yanvar-noyabr*

*10 256,8 mlrd so‘m*

*2022- yil yanvar-noyabr*




Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmida iste’mol mahsulotlarining ulushi

**2021- yil** **104,1 %**

**2022- yil** **128,7 %**

## Hududlar bo‘yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat bo‘yicha jami hajmidagi eng yuqori ulush Tuproqqal’a tumaniga to‘g‘ri kelib 80,0 %ni, shuningdek, Urganch shahrida 6,2 %ni, Xonqa tumanida 2,2 %ni tashkil etdi.*

***4 867,8*** *mlrd so‘m*

*2021- yil yanvar-noyabr*

***6 183,6*** *mlrd so‘m*

*2022- yil yanvar-noyabr*




Jami iste’mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq- ovqat mahsulotlarning ulushi

**106,1%**
**2021- yil**

**127,0 %**
**2022- yil**



## Hududlar bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat bo‘yicha jami hajmidagi eng yuqori ulush Tuproqqal’a tumaniga to‘g‘ri kelib, 46,0 %ni, shuningdek, Urganch shahrida 29,0 %ni, Urganch tumanida 5,9 %ni tashkil etdi.*




**3 098,7** *mlrd. so‘m*

*2021- yil yanvar-noyabr*

**4 065,0** *mlrd. so‘m*

*2022- yil yanvar-noyabr*




Jami iste’mol mollari ishlab chiqarish hajmida oziq- ovqat mahsulotlarining ulushi

**99,3 %**

**2021- yil**

**131,2 %**

**2022- yil**

## Xorazm viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari

*Shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Tuproqqal'a tumaniga to'g'ri kelib, 52,3 %, shuningdek, Urganch shahrida 17,4 %ni, Urganch tumanida 5,0 %ni, Xonqa tumanida 3,9 %ni tashkil etdi.*

### Xorazm viloyati

**2021- yil** *yanvar-noyabr*
11 660,3 mlrd so'm

**2022- yil** *yanvar-noyabr*
16 270,0 mlrd so'm



| | |
|---|---|
| 2021- yil | 112,1 % |
| 2022- yil | 115,6 % |

| Hudud | FHI, % da | mlrd so'm |
|---|---|---|
| Xorazm viloyati | 115,6 | 16 270,0 |
| Urganch shahri | 116,3 | 2 831,0 |
| Xiva shahri | 108,0 | 199,1 |
| Bog'ot tumani | 110,5 | 448,0 |
| Gurlan tumani | 106,3 | 432,5 |
| Qo'shko'pir tumani | 101,6 | 347,7 |
| Urganch tumani | 109,8 | 813,8 |
| Hazorasp tumani | 107,4 | 413,7 |
| Tuproqqal'a tumani | 114,4 | 8 514,6 |
| Xonqa tumani | 107,4 | 627,1 |
| Xiva tumani | 98,5 | 216,3 |
| Shovot tumani | 104,0 | 607,3 |
| Yangiariq tumani | 117,2 | 369,9 |
| Yangibozor tumani | 123,2 | 448,9 |

## Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

*Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Tuproqqal'a tumanida (149 271,4 ming so'm), Urganch shahrida (19 148,1 ming so'm) aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (10 742,5 ming so'm) yuqoriligini ko'rsatmoqda.*




### Xorazm viloyati

**2021- yil** *yanvar-noyabr*

**6 124,5 ming so'm**

**2022- yil** *yanvar-noyabr*

**8 405,6 ming so'm**



**110,4 %** — 2021- yil

**113,7 %** — 2022- yil

## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

*Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2 535,2 mlrd. so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 15,6 %ni tashkil etdi.*




### Xorazm viloyati

**2021- yil** *yanvar-noyabr*
**2 314,5 mlrd so‘m**

**2022- yil** *yanvar-noyabr*
**2 535,2 mlrd so‘m**



**24,8 %** — **2021- yil**

**15,6 %** — **2022- yil**

## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

*Shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 5 299,0 ming so‘m bo‘lgani holda, Tuproqqal’a tumanida 119 545,0 ming so‘mni, Urganch shahrida 10 648,9 ming so‘mni tashkil etdi.*

### Xorazm viloyati

**2021- yil** *yanvar-noyabr*

**4 186,9 ming so‘m**

**2022- yil** *yanvar-noyabr*

**5 299,0 ming so‘m**



**102,6 %** — 2021- yil

**126,6 %** — 2022- yil

| | o‘sish sur’ati | ming so‘m |
|---|---|---|
| Xorazm viloyati | 126,6 | 5 299,0 |
| Urganch shahri | 153,5 | 10 648,9 |
| Xiva shahri | 97,4 | 1 510,0 |
| Bog‘ot tumani | 91,1 | 910,6 |
| Gurlan tumani | 100,4 | 1 030,6 |
| Qo‘shko‘pir tumani | 92,0 | 506,5 |
| Urganch tumani | 115,5 | 1 799,3 |
| Hazorasp tumani | 109,6 | 480,9 |
| Tuproqqal’a tumani | 126,4 | 119 545,0 |
| Xonqa tumani | 107,4 | 1 704,6 |
| Xiva tumani | 95,4 | 660,3 |
| Shovot tumani | 95,1 | 877,5 |
| Yangiariq tumani | 115,6 | 1 161,1 |
| Yangibozor tumani | 143,1 | 1 418,9 |

## Viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

*Bugungi kunda viloyatda 4 772 ta sanoat korxonasi faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 849 tasi (faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 17,8 % ) Urganch shahriga, 548 tasi (11,5 %) Urganch tumaniga, 444 tasi (9,3 %) Qo‘shko‘pir tumaniga, 410 tasi (8,6 %) Xonqa tumaniga va 396 tasi (8,3 %) Xiva shahriga to‘gri kelmoqda.*




**Jami yangi tashkil etilgan**

**2021- yil** — **916 dona**

**2022- yil** — **1 133 dona**



**Jami faoliyat yuritayotgan**

**2021- yil** — **4 150 dona**

**2022- yil** — **4 772 dona**